

7+



TARBIYACHI



UO'K...
KBK...
M..

Muhammadali Mamadaliyev.
Kasblar. Tarbiyachi[Turkum kitoblar] / M. Mamadaliyev.
–Toshkent: “Shimol yog‘dusi”, 2025. – 16 bet.

Loyiha rahbari:
Sherzod Mustafakulov

Aziz bolajonlar va hurmatli ota-onalar!
Ushbu mo‘jaz kitobimiz bolajonlarning kelajakda kasb tanlashga yaqindan yordam beradi. Rasmlar esa ularning tasavvurini boyitadi.
Bolalaringizni mutolaa zavqidan bebahra qoldirmang.

ISBN ...

© M. Mamadaliyev, 2025
© “Shimol yog‘dusi”, 2025



Mening ismim Hilola. Keljakda tarbiyachi bo'lmochiman, bu kasb menga judayam yoqadi. Chunki onam ham tarbiyachi bo'lib ishlaydilar. Men ularga havas qilganman.

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI



Maktabgacha ta'lim tashkilotlari bolalarni 2 yoshi-dan boshlab qabul qiladi va to 7 yoshgacha ta'lim-tarbiyasi bilan shug'ullanadi.



Tarbiyachilar bolalarni erta tongda ota-onalari dan qabul qilib oladi va shifokor ko'rigidan o'tkazadi. Bolalar sog'ligi ota-oni va tarbiyachi uchun juda muhim.



Bola sog'lomligi nazoratdan o'tgandan so'ng,
Byoshiga qarab guruhlarga biriktiriladi.



Curuhdagি bolalar dastlab badantarbiya mashqla-
Grini bajaradi.



Shundan so'ng ular nonushta qiladilar.



Nonushtadan so'ng aqliy tarbiya mashqlari o'rga-tiladi. Bolalar bunda yozadi, chizadi, bo'yaydi, narsa-buyumlar yasaydi.



Tushlik vaqtida ham tarbiyachilar bolalarga foydali odatlarni o'rgatadilar. Ya'ni stol atrofida o'tirishni, qoshiqni to'g'ri ushlashni, ovqatni to'kmasdan yeyish ko'nikmalarini shakllantiradi.



Tushlikdan so'ng tarbiyachi bolalarni tabiat qo'yninga olib chiqadi. Bolalar daraxtlar, o'simliklar, gullar, qushlar, hayvonlar bilan tanishadi.



Sayrdan so'ng tarbiyachi bolalarni kunduzgi uyqu Suchun yotoqxonasiga olib keladi. Bolalar dam oladilar.



Qyqudan so'ng bolalar yuvinadilar. Bunda ham tarbiyachi bolalarga qo'lni sovunlab yuvish, tishlarни tish pastasi bilan tozalash kabi odatlarni o'gatadi.



Yuvinib bo'lgandan keyin kichik tamaddi qiladilar.
Shundan so'ng bolalar yana tabiyachi yordamida
sport o'yinlarini o'ynaydilar.



Mashg'ulotlar davomida tarbiyachi bolalar bilan
mtez til topisha olishi va bolaning ruhiyatini yax-
shi anglay olishi lozim. Tarbiyachi har bir bolaga go'zal
muomala qilishi lozim.



Shu tariqa tarbiyachining vazifalari kechki paytgacha davom etadi, bolalarga bu vaqt davomida ta'lim-tarbiya beradi. So'ng ota-onalar bolalarini uylariga olib ketadi. Bu kasb men uchun qiziqarli va yoqimli. Men albatta kelajakda tarbiyachi bo'laman.